

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI  
MEDIATEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MA’NAVIY TARBIYASINI  
SHAKLLANTIRISHNING METODLARI**

**Mo‘minova Marxabov Karomatillo qizi**

Guliston davlat universiteti

2-bosqich magistranti

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mediatexnologiyalar asosida ma’naviy tarbiyasini shakllantirishning metodlari va qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan usullarning mavjud holati va ilm kishilarining mazkur mavzu yuzasidan keltrigan fikrlari jamlangan.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat, boshlang‘ich ta’lim, madaniyat, konsepsiya, diniy ta’limot, qadriyat, ruhiy poklik, vijdon, axloq, falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, islohotlar, tizim.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье обобщены современное состояние методов формирования духовного воспитания учащихся начальных классов на основе медиатехнологий и методов, которые можно использовать, а также мнения ученых по данной теме.

**Ключевые слова:** духовность, начальное образование, культура, концепция, религиозное учение, ценность, духовная чистота, совесть, этика, философское, правовое, научное, художественное, реформы, система.

**ABSTRACT**

This article summarizes the current state of the methods of forming the spiritual education of elementary school students based on media technologies and the methods that can be used, as well as the opinions of scientists on this topic.

**Key words:** spirituality, primary education, culture, concept, religious teaching, value, spiritual purity, conscience, ethics, philosophical, legal, scientific, artistic, reforms, system.

Prezidentimiz Mirziyoyev Sh.M. ta’kidlashicha “Kitob – inson ma’naviy olamini boyitishda ulkan ta’sirga ega bo‘lgan vositadir” degan edilar.

Boshlag‘ich sinf o‘quvchilaring kitobga bo‘lgan mehrini, qiziqishini oshirish bilan birga buyuk siymolarimiz: A.Navoiy, Z.M.Bobur ,A.Temur, Mirzo Ulug‘bek va boshqalarning ma’naviy meroslariga bo‘lgan yana bir karra ortadi.

Ma’naviy-madaniy tarbiyaa— ma’naviy ongni bir maqsad ko‘zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg‘ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko‘nikmalri va odatlarini hosil qilishdan iborat. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog‘liq bo‘lib, bu talablar o‘z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi darajasi va jamiyatda yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodga na’naviy-axloq va e’tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lo‘zim.

O‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy odob-axloq normalari asosida ish yurutish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo‘lish, kabi fazilatlarni singdirishni atqo‘zo etadi. Bu vazifalarni amalga oshirish o‘quvchilarning jamiyatga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Axloq-odob tarbiyasi milliy, ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshirilgangandagina uning mazmuni yanada boyib boradi. Chunki, milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar axloqiy tarbiyaning hamma tomonlarini qamrab oladi. Ma’naviy-madaniy tarbiyaa—ta’lim berish bilan birga bog‘liq bo‘lgani holda, o‘z xususiyatlariga, o‘ziga xos vazifalari, uni tashkil; etishning forma va metodlariga ega bo‘lib, maxsus ravishda o‘rganilishi lo‘zim. O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy trabiyalashning muhim sharti sifatida o‘quv va o‘qishdan tashqari xilma-xil faoliyatlarning birligi to‘g‘risidagi tushunchalar bilan bog‘liqdir.

O‘quv va ma’naviy-madaniy tarbiyaafaoliyati bir-birlarini to‘ldirilishi lo‘zim: pedagog tomonidan tarbiyaviy bosqichga rahbarlik qilingan taqdirdagina biror maqsadga qartilganlik ma’lum bir tizim bo‘lishi mumkin. Ma’naviy-axloqiy tarbiyalash avvalo tarbiyalanuvchi shaxsining tarkib toppish jarayoniga rahbarlik qilishni taqo‘zo etadi.


Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- a) O‘quvchilarda jamiyatga va Vatanga sadoqatini tarbiyalash;
- b) Mehnatga axloqiy munosabatini tarbiyalash;
- c) Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat;
- d) Shaxsning o‘ziga, o‘z xulqiga axloqiy munosabatini tarbiyalash;

Yuksak darajadagi ma’naviyatga ega inson – fidoyilik, jasorat, mardlik, o‘z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlardan afxrlanish kabi oljanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Insonning insonligi birinchi navabatda, uning ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma’naviy-axloqiy barkamollikning asosiy

qirralariga yuqoridagi aytilganlardan kelib chiqib, quyidagilarni kiritish mumkin: ota-onasi, farzandlari, qo‘ni-qo‘snilari, mahalla-ko‘yi, qishloqdoshlari va butun mamalakat xalq farovonligi haqid qayg‘urish; tevarak-atrofdagiinsonlar unga kerak bo‘laganiligi singari, o‘zi ham ularga kearkli bo‘lishga intilishi; odob-axloqi, fe’l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burchi deb hisoblash; ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo‘lib qolgan madaniy merosni qadrlash; milli qadriyatlarni e’zo‘zlash va ularga sodiq bo‘lib qolishi; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularining barqaror bo‘lishi; o‘zaro muomala-munosabatda o‘rnak bo‘lishga moyillik, birovning og‘irini yengil qilish; Vatanni himoya qilish; va’daga vafoli bo‘lish va h.k.

Maktablarda o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olib, sinfdan tashqari ishlarga tarkibiga kiruvchi noan’aviy darslar ham tashkil etilib kelinmoqda Masalan; <sup>1</sup>Konsultatsiya darsi, ijod darsi, mutoola darsi, ilmiy fantastika darsi, xalq og‘zaki ijodi darsi, ekskursiya darslarini o‘quvchilarning ma’naviyatini, madaniyatini rivojlantirisha qaratilgan bo‘lib shakllanishiga bir omil va texnologiya bo‘lib xizmat qiladi.



<sup>1</sup> A.E.Kenjaboyev,J.A.Kenjaboyev. Masofaviy ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogik innovatsiyatsion texnologiyalardan foydalanish..Ilmiy ommabop nashr Termiz 2021. 53-54 betlar.

Maslahat darsi - o‘tilmoqchi bo‘gan dars yoki tadbirni oldidan mashg‘ulot va tayyorgarlik darsi.Bunda barcha o‘quvchilarning o‘z istaklari va qiziqishlariga qarab o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil takliflarini bildiradilar va bir birlari bilan shu dars yoki tadbir rivoji bilan fikrlashadilar.

Ijod darsi –o‘quvchilarning mustaqil ijodlariga qaratilgan darsdir,ya’ni bolalarni o‘z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda guruhlarga bo‘lish va bu guruhlarga o‘qituvchining topshirig‘i bilan vazifani bajarishga kirishish,ijod qilish. Belgilangan vaqt mobaynida „Eng ijodkor va faol guruh”, „Eng tashabbuskor guruh”, „Eng chaqqon va ishbilarmon guruh” nominatsiyalari bilan taqdirlash.

Mutoola darsi—bunda o‘quvchilarga bir xil hikoya yoki ertak kitobdan ma’lum bittasini tanlab o‘qib chiqadilar. Shundan so‘ng ularga alohida savollar va testlar yo‘zilgan varaqchalar tarqatiladi va yo‘zma javob beradilar. Dars oxirida kitobda o‘qigan hikoyalari yuzasidan qisqa xulosa aytildi.

Ilmiy fantastika darsi-- o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlari asosida ijodiy xayol,taxminlar o‘ylab topish mashqi orqali mustaqil fikrlashni kengaytirish. Mavzuga mos bo‘lgan ertak ,afsona, hikoya, multfilm, kinofilm qahramonlariga oxshatib fantaziya qilib, o‘xshatishlar bajarib ko‘rsatish.

Xalq og‘zaki ijodi darsi— o‘quvcilarning milliy qadriyatlarni davomchilari sifatida qarash qiziqtiruvchi ilmiy fantastika darsi, texnologiyalarni o‘z ichiga olgan dars.dars mobaynida unutilib borayotgan xalq ijodiga qayta zamonaviy sayqal berib o‘quvchilarning o‘z takliflarini inobatga olinib qayta ishlash va shu orqali ma’naviy merosimizga bo‘lgan hurmat va qiziqishni so‘ndirmaslik,balki yanada takomillashtirish.

<sup>1</sup>Ekskursiya darsi—o‘quvchilarni turli obyektlar; muzey, ziyoratgoh, tabiat, madaniyat uylari, teatr tomoshalari, turli tadbirlar, sayilgohlar, tarixiy obidalarga sayohatlar uyushtirish. Bu orqali kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviy madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shib, tariximizga bo‘lgan hurmatning yaqqol ifodasi bo‘la oladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi, zero <sup>2</sup>, Tarixsiz kelajak yoq “ degan edilar birinchi prezidentimiz I.A.Karimov.

Xalq pedagogikasida, uning manbalarida jismoniy jazo tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida aslo uchramaydi, aksincha jismoniy jazo yomon oqibatlarga olib kelishi ta’kidlanadi. Lekin xalq pedagogikasi tarixida tarbiya nuqtai nazaridan jismoniy jazoning shapaloq urish va quloq cho‘zish shakllari ishlatilgani ma’lum.

Xalqimiz tarbiyaning turli metod va shakllarini amalga oshirishda xilma-xil tarbiya vositalaridan foydalanganlar. Xususan, xalq o‘yinlari va o‘yinchoqlar, xalq

<sup>1</sup> A.E.Kenjaboyev,J.A.Kenjaboyev. Masofaviy ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogik innovatsiyatsion texnologiyalardan foydalanish..Ilmiy ommabop nashr Terniz 2021. 53-54 betlar

<sup>2</sup> Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. „Sharq”,1998, 3-bet.

og‘zaki ijodi, tabiat va inson munosabatlari, xalq tabobati xususiyatlari, turli to‘y-tomosha marosimlari, sayil, yig‘in, bazm, bayramlarda kattalar va bolalaming birgalikdagi ishtiroki, gap-gashtak va ulfatchilik, choyxona gurungi, aza ma’rakalari, uzoq safarga va ovga chiqish va h.k.

Tarbiya vositalaridan biri bolgan bolalar o‘yinlarining o‘z qoidalari bo‘lgan. Shu qoidaga rioya qilmagan bolalarni «o‘yin buzuqi» deb o‘yindan chetlatishgan. Ya’ni o‘yin jarayonida bolaning yaxshi va yomon jihatlari namoyon bolgan. E’tibor bersangiz, tarbiya vositalarining barchasi ko‘pchilik ishtirokida amalga oshiriladi va shubhasiz, bu juda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bunday bayram, sayil, gap-gashtak, yig‘inlarda bolalaming yaxshi va yomon xatti-harakati ko‘pchilikning ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi va shu ko‘pchilik tomonidan baholanadi. Ota-onalar o‘z farzandlari tarbiyasiga oid xulosalar chiqaradilar. Farzandlaming odob-axloqi haqidagi yaxshi fikrlar ota-onani quvontirsa, aksincha, farzandining xulqi haqidagi ta’na va isnodlar ulami tashvishga soladi. Bunda keksalar, ota-onalar: «Bolam, bu yurish-turishingni ko‘rganlar, gap-so‘zingni eshitganlar nima deydi?», «Mahalladagilardan uyat emasmi?», «Bizni uyatga (isnodga) qo‘ydingku (sharmanda qildingku)», - deb aziyat chekishadi.

O‘smir yoshdagagi bolalaming choyxona gumngi, gap-gashtaklarining ham o‘ziga yarasha qoidasi bor. Bu choyxonaga navbat bilan taklif qilish, o‘rtoqlari bilan samimiyligi muomalada bo‘lish, so‘zlovchi gapini bo‘lmaslik, navbat bilan gapirish, navbat bilan choy quyish, choyni o‘ng qo‘l bilan uzatish, no‘z-ne’matlami teng baham ko‘rish, dasturxonga undash va hokazolardir. O‘smirlaming yaxshi fazilatlari ham, yomon xulqi ham bu yig‘in- larda namoyon bo‘ladi. Kattalaming o‘git-nasihatlarini olib, ulfatchilikda qatnashgan o‘smirlar odob qoidalari yaxshi o‘zlashtirib oladilar.

Xalq pedagogikasida tarbiya vositalaridan yana biri mehmondorchilikdir. Marosim, yig‘in, to‘y-tomosha, gap-gashtak, choyxona gurungining barchasi mehmondorchilikni o‘z ichiga oladi. Mehmondo‘stlik xalqimiz hayotiga singib ketgan eng yuksak kishilik fazilatlaridan iborat bo‘lib, yoshlar tarbiyasida eng muhim tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Xonodon mezbonlari mehmonning ko‘nglini olish, xursand qilish uchun eng yaxshi idish-tovoqlarni ishlatalardilar, tansiq taomlar pishiradilar. Mehmondo‘stlikning o‘ziga xos qoidalari bolalarga pand-nasihat, maslahatlar berish orqali, shaxsiy ibrat-o‘rnak ko‘rsatib yoshligidan o‘rgatib kelinadi. Shu tariqa xalqimiz yuqoridagi kabi tarbiya metodlari, shakllari va vositalari orqali yosh avlodni ahloqiy tarbiyalab, insoniy fazilatlarga o‘rgatganlar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida manaviyatini shakllantirish maqsadida dastlab o‘quvchilarga xulq-odob me’yorlari va O‘quvchi yoshlarda ma’naviy axloqiy munosabatlarni shakllantirish ularning salbiy qoidalari anglash va shaxs ongini shakllantirishga doir metodlar asosida amalga oshiriladi.

Bunga badiiy adabiyotlarni o‘qish, kinofilm va spektakllarni tomosha qilish, maxsus tashkil etilgan kechalarda turli mavzularda suhbatlar tashkil etish natijasida axloqiy tushunchalar va xulq-odatlar paydo bo‘la boshlaydi. O‘quvchilar avvalambor o‘zlarining va boshqalarning xatti-harakatlarini baholay boshlaydilar. Buning uchun turli ma’naviy-axloqiy mavzularda o‘tkaziladigan suhbat va muno‘zaralarda o‘quvchini fikr yuritish, o‘ylashga yo‘naltirish, kreativligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, «Siz vatanparvarlik deganda nimani tushunasiz?», «Milliylik va Zamonaviylik – bu nima?» kabi mavzulardagi suhbat, babs va muno‘zaralar o‘quvchilarni o‘ylash, fikr yuritishga yo‘llaydi, ularda salbiy xislatlardan saqlanish, yaxshi odatlarni o‘rganishga bo‘lgan intilish va qiziqishlari tarkib topa boshlaydi. Ularning, ayniqsa, o‘z xatti-harakatlarini baholashga bo‘lgan intilishlari va ishonch, e’tiqodlari shakllanadi.

O‘quvchi yoshlarning ma’naviy madaniyatini takomillash tizimida xalq og‘zaki ijodinig o‘rni bebaho sanaladi, bu esa tariximizga hurmat, unutilib borayotgan ota bobolarimizning ma’naviy merosini keyingi avlodlarga yetkazib saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi, zero birinchi prezidentimiz ta’kidlaganlaridek „tarixsiz kelajak yo‘q” ekanligiga yana bir bor ishonch bildiramiz. Xalq og‘zaki ijodidan namunalar boshlang‘ich sinf darsliklarida yoritilib, ularning ongida ijobiy xislatlarni singdirishga xizmat qilmoqda.

Hayotning mazmunini to‘g‘ri tushuntirish, farzandlarga odob-axloqni o‘rgatish, ezgu ishlarga odatlantirishda xalq pedagogikasining yuqorida ta’kidlangan tarbiya metodlaridan foydalaniladi. O‘git va nasihat metodi xalq og‘zaki ijodining turli janrlarida o‘z aksini topgan. Masalan, xalq maqollari o‘git va nasihat shaklida beriladi:

- Yaxshi bo‘lsang kelinchak, bo‘la ko‘rma erinchak.
- Eling senga cho‘za qo‘l, unga doim sodiq bo‘l.
- Ko‘kka boqma, ko‘pga boq.
- Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan.
- Yo‘jni borday qil, bomi bolday qil.
- Yaxshilik qilsang, yashir, yaxshilik ko‘rsang, oshir.
- Obro‘ topaman desang - kamtar bo‘l.

Ko‘rib turganimizdek, maqollandagi odob-axloq mazmuni o‘git- nasihat tarzida berilgan. Xalq dostonlarida ham tarbiyaning bu shaklini ko‘plab uchratamiz. Masalan, “Ravshan” dostonida E Ravshanjon! Axir mening uyimni motamxona qilib, meni tashlab ketar ekansan-da, – deb turib, asli mard emasmi, «Kel tavakkal-da», – deb ...o‘zi dildorlik berib ...o‘g‘liga qarab necha yerdan timsol keltirib, nasihat qilib so‘z aytayotir:

Paydo bo‘lding ikki gavhar donadan, Parvo‘z qilib uchding manzil-xonadan. Avval aytgan nasihatim, Ravshanjon, Kechsang yomon bo‘lar ota-onadan!

Eshitib ol, otang sho‘rning arzini, Elida sarg‘aytding gulday tarzini.  
Bir qiz uchun unutmagan bizlarni,  
Unutma otang ham onang qarzini!  
O‘zingdan pastlarman har yo‘lga ketma!  
Bolam, aytgan nasihatim unutma!  
Oldingdan kim chiqsa, besalom o‘tma! Bir g‘aribni ko‘rsang, zinhor og‘ritma!  
Qo‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot!  
Nasihatim yod qilib ol, yolg‘izim,  
Yolg‘iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

Hasanxon polvon mard emasmi, bolasiga qarab, oq fotihani betiga tortib: – Bor, bolam, manglayingni Xudo ochsin! – deb qolaverdi. Ravshanbek otasidan duo olib, otining boshini solib, yo‘lga ravona bo‘lib ketaverdi.

Sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida O‘quvchi yoshlarda ma’naviy-axloqiy munosabatlarini shakllantirishga , ularni darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, milliy ma’naviy merosimizga sodiqlik, ajdodlar ruhini hurmat qilishga, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan kreativ pedagogik texnologiya metodlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda ma’naviy madaniyatni shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi **yoshlarni besh tashabbus** orqali ma’naviyatni shakllantirishdagi qarori ahamiyat kasb etadi. Besh tashabbusga kiritilgan zamon talabiga mos bo‘lgan kitobxonlik, sport, san’at va iste’dodni qo‘llab quvvatlanishi Boshlag‘ich sinf o‘quvchilarida juda zavq bilan qarshi olindi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilardagi qobiliyat, iste’dodni e’tiborga olib, ularga mos ravishda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazdilar.

Ma’naviy axloqiy mavzudagi tadbirlarni tashkil etishda quyidagilarga e’tibor beriladi.

1.O‘tkaziladigan ma’naviy tadbirlar qiziqarli ,maqsadli va mazmunli bo‘lib o‘quvchilarning yoshiga mos bo‘lishi;

2.Ma’naviy ma’rifiy tadbirlarni o‘quvchilar qabul qilishi uchun sog‘lom muhit yaratish;

3.O‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ishonchli va turli ko‘rinishda bo‘lishi lo‘zim;

4.Tushuntirish targ‘ibot ishlari axloqiy tushunchalar insoniy fazilatlarga bog‘liq bo‘lishi ;

Ma’naviy madaniyatni boshlang‘ich sinflarda turli usullarda takomillashtirish tizimi quyidagi usullarda tashkil qilish mumkin;

1.Izohlash--tarbiyalanuvchiga og‘zaki emosional ta’sirga ko‘rsatishi;

2.Nasihat—tarbiyalanuvchiga sokinlik va hayrixoh vaziyatlarda maqsadli nasihat bersa ,tarbiyalanuvchi qabul qiladi;

3.Ishontirish—tarbiyalanuvchilarni axloqiy ongini tarbiyalashda katta yordam beradi.

4.Ma’naviyiy axloqiy xulq –atvorini shakllantirish metodlari;

a) mashq – ma’naviy axloqiy xulq- atvorlari tarbiyalashning oddiy usuli.

b)talab- tarbiyalash maqsadida o‘quvchidan biror narsani qatiyat bilan so‘rab turish

v)o‘rgatish-o‘quvchiga biror ish harakatini,yo‘l yo‘riqni tushuntirishni bildirish va shu ishni mustaqil bajarishga o‘rgatish;

g)uyaltirish-nomaqbul qilig‘i uchun noqulaylik tog‘risida tushuntirish lo‘zim.

Shuni a’lohida aytish kerakki, o‘zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyoti davrida madaniy va ma’naviy madaniyati bir tekisda rivojlangan emas. Unda biz uyg‘onish, yuksalish bilan bir qatorda depsinish, turg‘unlik holatlarini ham kuzatishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch”. T.: “Ma’naviyat” nashriyoti. 2008 y 10 b
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. „Sharq”, 1998, 3-bet.
3. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sun qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-sun, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-sun)
4. A.E.Kenjaboyev,J.A.Kenjaboyev. Masofaviy ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogik innavatsiyatsion texnologiyalardan foydalanish..Ilmiy ommabop nashr Termiz 2021. 53-54 betlar
5. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”/ “Sano-standart” nashriyoti. Toshkent 2017 yil 156-bet
6. R.Mavlonova, N.Vohidov, N.Rahmonqulova “Pedagogika nazariyasi va tarixi” “Fan va etxnologiya” nashriyoti. Toshkent 2010-yil 324-bet.